



VAN YAN MIN FALSAFIY TA'LIMOTIDA INSON TABIATI, AXLOQ VA BILIM MASALASI

Xoshimov Sanjarbek Sultonbekovich

Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada XV–XVI asrlarda Xitoyda shakllangan neokonfusiychilikning yirik vakili Van Yan Min falsafasida axloq va bilim muammolarining talqini tahlil qilinadi. Mutafakkirning inson tabiati, ma'naviy kamolot, nafsni tarbiyalash, ong va bilish jarayonlari haqidagi qarashlari yoritiladi. Shuningdek, faylasufning komil inson konsepsiyasi, bilim va axloqning o'zaro uyg'unligi haqidagi qarashlari ochib beriladi. Maqolada Van Yan Min merosining Sharq falsafiy tafakkuri taraqqiyotidagi o'rni hamda uning zamonaviy ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalaridagi ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Van Yan Min, neokonfusiychilik, yanminizm, axloq, bilim, ong, komil inson, nafs tarbiyasi, ma'naviy kamolot, Xitoy falsafasi.

KIRISH

Qadimgi Xitoy hududida shakllangan falsafiy ta'limotlar Sharqda o'ziga xos bo'lgan alohida bir maktab yarata oldi. Bu maktab Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlaridagi aholining asrlar davomida ijtimoiy-madaniy hayoti rivojlanishida muhim rol o'ynab kelmoqda. Muayyan yillar davomida Xitoyning fan va madaniyati, ijtimoiy tafakkuri o'ziga xos shaklda rivojlandi. Turli davrlarda turli xil falsafiy maktablar paydo bo'ldi, rivojlandi hamda intihoga yuz tutdi. Ba'zilari esa hozirgi kungacha o'z falsafiy tizimini saqlab kelmoqda. Mana shunday falsafiy maktablardan biri, asosiy e'tiborini qadimgi Xitoydagi boshqa falsafiy maktablar singari jamiyatga emas, balki insonning o'zligini anglashga qaratilgan Van Yan Min hamda uning yanminizm falsafiy maktabidir.

Xitoy falsafiy tafakkurining shakllanishi va taraqqiyoti jarayonida Van Yan Min nomi bilan bog'liq bo'lgan falsafiy qarashlar tizimining ahamiyati juda katta. Van Yan Min o'z davrining yetuk mutafakkiri sifatida Xitoy hamda Sharq falsafiy tafakkuri taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan shaxsdir. Uning g'oyalari insonni axloqiy barkamollikka erishishi, jamiyatdagi muvozanatni saqlash, tabiiy va ijtimoiy qonuniyatlarni uyg'un holda idrok etish kabi masalalarda chuqur falsafiy yondashuvni o'z ichiga oladi.

Van Yan Min Konfusiychilikdan so'ng Xitoy feodal jamiyatida chuqur iz qoldirgan eng yirik faylasuflardan biri bo'lgan. U o'zining butun hayoti davomida konfusiychilik aqidalari hukmron bo'lgan Xitoy madaniyati va siyosatida neokonfusiychilikning fundamental asoslari va g'oyalarini qayta rivojlantirish yo'llarini qidirdi. Uning vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlariga ishonch, sodiqlik kabi qarashlari



bugungi kunda nafaqat Xitoy hududida, balki Sharqiy Osiyo davlatlarida ham yetakchi g'oyalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METADOLOGIYA

Olimlar tomonidan Van Yan Minning falsafiy g'oyalar tizimini anglash va unga baho berish juda murakkab ekanligi e'tirof etiladi. Buni anglashimiz uchun ba'zi olimlar tomonidan berilayotgan fikrlarni tahlil qilib chiqish lozim bo'ladi. Bu fikrlar yanminizmning madaniy-tarixiy jarayonlarda anglanishi, uning paydo bo'lishi, o'rni va ahamiyatining ba'zi bir umumiy tavsiflarini ko'rsatib beradi. Van Yan Minning falsafiy ta'limoti XX asr boshlarida neokonfutsiychilik doirasida o'rganib kelindi.

Min sulolasi davrda ijod qilgan Van Yan Minning hayoti va uning falsafiy merosi dunyoning turli burchaklarida katta qiziqish bilan tadqiq etilmoqda. Uning falsafiy g'oyalari G'arbda XX asr birinchi yarmidan qiziqish boshlandi.

Xususan, G'arbda yanminizm g'oyalari haqidagi ilk ma'lumot T.Xaganing (1893 y) yapon falsafiy maktablariga bag'ishlangan maqolasida keltirilgan edi. Shunday qilib Yevropa ilmiy hamjamiyati birinchi marta ushbu falsafiy oqim bilan uning xitoy manbalari orqali emas, balki yapon manbalari orqali tanishdi. Bu tabiiy hol edi. Chunki Yaponiyada bu ta'limot Xitoydan ko'ra ko'proq mafkuraviy kuchga ega bo'lgan.

Yapon yanminizmini o'rganishni R.Armstrong o'zining "Sharqdan nur" (1914 y) kitobida davom ettiradi. XX asrning birinchi choragida yanminizm g'oyalari bo'yicha uchta muhim asarlar dunyo yuzini ko'rdi. Bular 1936-yilda yozilgan Van Chanchji qalamiga mansub fransuz tilidagi "Van Yan Minning axloqiy falsafasi" asari va shu yili L.Kedi yozgan "Van Yan Minning hissiy bilish nazariyasi" hamda 1939-1940-yillarda Chjan Yuysuan tomonidan yozilgan "Van Shoujen davlat arbobi sifatida" (ikkalasi ham ingliz tilida yozilgan) asarlaridir. Xitoyshunos tarixchilardan L.Viger, A.Forke, G.Xakman va E.Senkerlar Van Yan Min falsafasini eng sodda tarzda yoritib berishga uringanini ko'rishimiz mumkin.

G'arbda yanminizmni o'rganishning eng rivojlangan davri XX asrning 50-yillariga to'g'ri keladi. Bunga yanminizm bilan g'oyaviy jihatdan bog'liqlikda bo'lgan dzen-buddizmning mashhur bo'lishi ham sabab bo'ldi. 1966-yilning bahorida Kolumbiya universitetida Xitoy jamiyatida Min sulolasi davridagi mafkuraga bag'ishlangan seminar va shu yilning iyunida amerikalik olimlar rahbarligida bo'lib o'tgan ilmiy konferensiya Van Yan Min ta'limotini o'rganishning yana bir bosqichi bo'ldi. Konferensiya materiallari 1973-yilning boshida ikkita juft raqamlarda "Philosophy East and West" jurnalida nashr qilingan.

Sovet ilmiy adabiyotida ham Van Yanminga ta'limotiga bag'ishlangan maxsus asarlar yaratildi. Xususan, A.A.Petrovning "Xitoy falsafasi tavsifi", "Falsafa tarixi", "Falsafiy ensiklopediya" sini aytib o'tishimiz mumkin. Y.B.Radul-Zatulovskiyning "Neokonfusiychilik va uning Yaponiyada yoyilishi" asarida yanminizm g'oyalari to'g'risida to'laroq ma'lumotlar jamlangan. Van Yanmin ta'limotini tadqiq qilishda A.I.Kobzevning ilmiy izlanishlari muhim ahamiyatga egadir.

MUHOKAMA



O'rta asrlarda 3 ilm sintezi - konfusiylilik, daosizm va buddizm Xitoy mafkurasining muhim belgilaridan hisoblangan. Bu soha olimlari o'zlari yashagan o'rta asrlarda ham, undan keyingi tarixiy bosqichlarda ham davlatning axloqiy va ijtimoiy qadriyatlar qo'riqchilari va muallimlari, huquqiy normalar va ta'lim tizimi yaratuvchilari bo'lib qolaverdilar.

Ma'lumki, Xitoyda o'rta asr huquq va axloqiy qarashlarining asosida konfusiylilik ta'limoti yotadi. XV-XVI asrda konfusiychilik ta'limoti negizida mutafakkir va davlat arbobi Van Yan Minning ham huquqiy va ma'naviy-axloqiy qarashlari shakllandi. Uning g'oyalari davlat boshqaruvida hamda o'sha davr axloqiy tamoyillaring rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etdi.

Van Yan Min ta'limotidagi inson tabiati, uning ichki dunyosi muammolarining ustivorligi masalalari yanminizm g'oyalarining keng tarqalishiga olib keldi. O'zidan oldingi faylasuflardan farqli o'laroq neokonfusiychilik g'oyalarining ta'siri natijasida individual shaxs mutafakkir falsafasining eng asosiy ob'yektiga aylana bordi. Shu sababli, yanminizmda mavhum insoniyat emas, balki individual shaxs, aniq insonga e'tibor birinchi darajali maqomga ega bo'ldi. Ob'ekt emas, balki sub'ektga bo'lgan munosabat Van Yan Minni boshqa faylasuflardan farqlab turuvchi muhim xususiyatdir.

Van Yan Min inson o'zida osmonning oliy tamoyilini saqlash (xitoyda "osmon" buyuk yaratuvchi sifatida talqin qilinadi) va nafs hamda havoyi istaklarni jilovlash hamda ezgu maqsadlar sari yo'naltirishda "nafsni" tarbiyalash kerakligi haqida fikr yuritadi. "Nafs jilovlanganda osmonning oliy tamoyili doimo tiniq bo'ladi, insoniy istaklar bo'g'iladi va o'z-o'zini yo'q qiladi" deb ta'kidlaydi. Ya'ni inson o'z nafsining quliga aylanib qolishdan saqlana olsagina ezgu maqsadlarga intilish kuchayadi hamda yomonlik va gunoh ishlarga undovchi o'y-fikrlardan halos bo'ladi.

Nafsni tarbiyalash "inson ongida be'mani fikrlar bo'lmasligini, tashqi olamda esa bema'ni harakatlar sodir etilmasligini" talab qiladi. "Qachonki yurakda johillikka undovchi istak qolmasa, mana shu tarbiyalangan nafs bo'ladi".[1]

Van Yan Min axloqiy normalarni inkor qiluvchi diniy qarashlarga qarshi chiqqan. Uning insonda nafsni tarbiyalash haqidagi fikrlari Sharq madaniyatida maydonga kelgan tasavvuf ta'limotiga o'xshash va hamohangdir.

Van Yan Min barcha narsalarda ijobiy sifatlarga ega "li" (xitoy falsafasiga ko'ra, ruhiy olam, ruhiy substansiya) mavjud bo'lsa, u ezgu bo'ladi deb ta'kidlagan [2]. Faylasuf davlatda ham davlatchilik yoki boshqaruv "li"si bo'lishi kerak, deb hisoblaydi.

Agar davlat shu "li"ga asosan tashkil etilgan va boshqarilayotgan bo'lsa, u barqaror bo'ladi va ravnaq topadi, agar unday bo'lmasa – u xaosga yo'liqadi. Van Yan Min bunday "li" – qadimgi donishmand hukmdorlar amal qilgan va ular o'rgatgan boshqaruv tamoyili ekanligini ta'kidlagan. "Li" – unga amal qilinishi yo qilinmasligi, unga o'rgatilishi yo o'rgatilmasligiga qaramasdan abadiydir.

Bu masalada Van Yan Min o'z do'sti faylasuf Chen Lyan bilan bahs-munozaraga kirishgan. Chen Lyan "Dao" (boshqaruv tamoyili) haqida gapirib, u odamlar faraz qilishi mumkin bo'lgan chegaradan tashqarida mangudir.



U qanday bo'lsa, shundaydir, u mangu va yo'q qilib bo'lmasdir. Odamlar unga rioya qilmagan bo'lsalar-da, u yo'q bo'lib ketmaydi". "Dao" – deb davom etadi Chen Lyan, – mavjud bo'lmay qolmaydi. Mavjud bo'lmay qoladigan narsa esa – insonga oid" [3].

Faylasuf va mutafakkir Van Yanmin "li" (boshqaruv tamoyili) o'tmishda ham kelajakda ham bir xil ko'rinishda bo'ladi deb ta'kidlaydi. Unga rioya qiladiganlar muvaffaqiyat qozonadilar, unga rioya qilmaydiganlar muvaffaqiyatsizlikka uchraydilar. Nafaqat qadimdagi donishmandlar unga amal qilganlar, hattoki bugungi kunning buyuk shaxslari ham bu tamoyilga amal qilmasalar, muvaffaqiyatga erishmaydilar.

Biroq bu yerda tafovut bor. Qadimdagi donishmandlar asosiy narsalarni a'lo darajada bajarib, "oltin muvozanat"ni tutib tura olar edilar, shu bois ular bajarayotgan barcha narsalar boshidan oxirigacha yaxshilikka limmo-lim edi. Mutafakkir ta'kidlashicha, o'zi yashagan davrdagi o'zini buyuk deb atagan odamlar hech qachon "li"ga rioya qilmadilar va faqatgina o'z nafsoniy tilaklariga binoan faoliyat yuritganlar.

Ular qaysi sohada muvaffaqiyatga erishish oson bo'lsa, o'sha sohada muvaffaqiyatga erishib, "li" tamoyiliga amal qilmoqdamiz deb o'ylaydilar. Lekin, amallarni a'lo darajada bajarmaydilar, shuning uchun ular "oltin muvozanat"ni tutib tura olmaydi. Ular har sohada bir-birlariga o'xshaydi. Ular bajarayotgan narsalar "li"ga batamom muvofiq kelishi mumkin emas, shuning uchun ularning barkamolligi komillik emas".

Aksar Xitoy mutafakkirlari Aflotunning "faylasuf hukmron, yoki hukmron faylasuf bo'lmaganicha mukammal davlat hosil bo'lmaydi", degan fikrini qo'llab-quvvatlaydilar. Qadimgi Xitoy hukmdorlari faylasuf bo'lishga intilganliklari haqida ham Van Yan Min o'z mulohazalarini bildirib o'tgan.

Van Yan Min har bir odamda, har bir narsada bo'lgani kabi to'laligicha "Buyuk chegara" mavjud deb hisoblagan. "Buyuk chegara"– bu barcha "li"larning umumlashgani bo'lganligi sababli, "li"lar bizlarda ham mavjud, ammo bizning jismoniyligimiz (moddiy) tufayli to'laligicha ifodalanmagan. Bizlarning o'zimizdagi "buyuk chegara" iflos suvdagi marvaridga o'xshaydi. Biz bu marvaridni ko'rinarli qilishimiz kerak.

Van Yan Min bilimga erishish yo'lining ikki taraflamaligi haqida gapirgan faylasuf Chen In qo'llagan "ashyolarning mohiyatini anglash orqali bilimni poyoniga yetkazish" usulini hamda "ong"ni ilgari suradi. Faylasuf "bilimdan (batimom) mahrum insonning ongi yo'q deb biladi.

Olamda "li"ga ega bo'lmagan ashyolar yo'q. Ammo "li"ni to'liq anglay olmaganligi tufayli bu bilim to'liq bo'lolmaydi. U o'zining "Buyuk ustozga savollar" (Da syuye ven) kitobining birinchi nasihatida "o'quvchi mavjud ashyolar haqidagi bilimni nihoyasiga yetkazishi va shu bilan o'z bilimlarini maksimal darajaga oshib borishi uchun anglagan "li"lari yordamida yo'lda davom etishi kerak" deb qayd etadi.



Bu yo'lda barcha kuchlarini sarf qilgan inson bir kuni albatta barchasini anglaydi. O'shanda barcha ashyolarning ichki va tashqi, nafis va qo'pol xususiyatlari namoyon bo'ladi, ong esa haqiqat ravshanligiga to'ladi deya ta'kidlaydi.

NATIJALAR

Faylasuf o'zining pand-nasihatlarida komil inson darajasiga yetishish uchun bular yetarli emas deb hisoblaydi. Agar insonda ong bo'lmasa, ashyolar mohiyatini anglash oddiy ma'naviy mashq bo'lib qolaveradi va istalgan maqsad – fikrning oydinlashuviga olib kelmaydi. Ashyolarni anglab, biz o'z burchimiz – o'z shaxsiy tabiatimizni namoyon qilishimiz va marvaridni yaltirashi uchun tozalashni yodda tutishimiz lozim. Fikrning oydinlashuvi uchun doimo ravshanlik haqida o'ylash kerak. Ongning vazifasi mana shunda.

Van Yan Minning ma'naviy takomillashish usuli Aflotun usuliga, uning tabiatimizda barcha ashyolar "li"si mavjudligi haqidagi nazariyasi – Aflotunning eslash sifatidagi bilim konsepsiyasiga o'xshaydi. Aflotun "biz bilimni barcha mohiyatlar tug'ilishidan avval olamiz", degan edi. [4]

XULOSA

Van Yan Min falsafasida insonning ma'naviy-axloqiy kamoloti, bilim va ong masalalari markaziy o'rin egallaydi. Mutafakkir axloq va bilimning o'zaro uzviy bog'liqligini ta'kidlab, komillikka erishish insonning o'z nafsini tarbiyalashi va borliq mohiyatini anglashi bilan bog'liq ekanligini asoslaydi. Shu jihatdan uning qarashlari nafaqat Xitoy neokonfusiychiligi rivojida, balki Sharq falsafasida inson va ma'naviyat muammolarini o'rganishda muhim nazariy ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Kobzev A.I. (1983) Problema prirody cheloveka v konfuzianstve (ot Konfusiya do Van Yanmina) // Problema cheloveka v tradisionnykh kitayskix ucheniyax. Str-128. M.
2. D.Po'latova, M.Qodirov, M.Ahmedova, A.Abduhalimov, Sh.Shozamonov. (2011) Sharq falsafasi. O'quv qo'lanma. T., 494-b.
3. Wilson, Thomas A. (1995) Genealogy of the Way: the construction and uses of the Confucian tradition in late imperial China, Stanford: Stanford University Publications.
4. Gertz, Sebastian R.P. (2011) Death and Immortality in Late Neoplatonism: Studies on the Ancient Commentaries on Plato's Phaedo, Leiden: Brill.
5. Санжарбек Султонбекович Хошимов ВАН ЯН МИН ФАЛСАФИЙ ТАЪЛИМОТИНИНГ МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ ВА ГНОСЕОЛОГИК ҚИРРАЛАРИ // Academic research in educational sciences. 2020. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/van-yan-min-falsafiy-talimotining-manaviy-ahlo-iy-va-gnoseologik-irralari>



6. Xoshimov S.S. INSON TUSHUNCHASINING G'ARB VA SHARQ FALSAFASIDAGI GNOSEOLOGIK TAHLILI // Экономика и социум. 2024. №5-1 (120). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/inson-tushunchasining-g-arb-va-sharq-falsafasidagi-gnoseologik-tahlili>

7. Xoshimov S. ABU NASR FOROBIYNING TA'LIM-TARBIYA BERISHGA OID PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK QARASHLARI // Экономика и социум. 2021. №12-1 (91). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/abu-nasr-forobiyning-ta-lim-tarbiya-berishga-oid-pedagogik-va-psixologik-qarashlari>

8. Sultanbekovich, H. S. . (2023). The Philosophy of Human in the Doctrine of Wang Yang Ming. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 4(6), 194–197. <https://doi.org/10.51699/cajlp.v4i6.920>